

**BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN SINFDAN TASHQARI
ISHLARNI AHAMIYATI**

*Bekbo‘tayev Beknazар Bekmurod o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda integratsion yondashish usullari, pedagogik jarayonda integratsiyaning o‘rni va ahamiyati haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sinfdan tashqari o‘qish, to‘garaklar, badiiy kechalar, olimpiadalar, ertaliklar, kompetentlik, pedagogika, ijodiy faoliyat, integrativ yondashuv, tamoyil, ijtimoiylashuv, integratsiya.

Hammamizga ayonki, o‘zbek xalqi azal-azaldan o‘zining bolajonligi oilaparvarligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustuni but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik paytidan boshlab, boshlang‘ich sinf davridayoq axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahmiyat kasb etgan. Ayniqsa, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, mustahkam poydevor rolini o‘taydi. Boshlang‘ich sinflarda olib boriladigan ta’limiy ishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ularning sinfdan tashqari ishlar bo‘lib o‘quvchilarni og‘zaki nutqini o‘stirish va ularda to‘g‘ri muomala odobini shakllantirish hisoblanadi[1].

O‘quvchi yuqori sinfga chiqqanda birinchi gal dagi muammo, o‘quvchilarning nutqidagi kamchiliklar ekanligi aytildi. Bu o‘quvchining kitobni kam o‘qishidan, o‘qigan asar yuzasidan og‘zaki hikoyalash malakasi rivojlanmaganidan dalolat beradi. Shu boisdan ota-onan bilan hamkorlikda ishlagan holda ularni tez-tez darslarga, tadbirlarga taklif qilib turish ham maqsadga muvofikdir. Ota-onan uyda farzandi uchun pedagog ekanini his qilishi, shuning uchun kitobni avval o‘zlari o‘qib namuna bo‘lishlarini tushunib yetishlari zarur. Bundan tashqari, ota-onan o‘zlari televizor qarshisida o‘tirib olib farzandiga kitob o‘qishini ta’kidlashi noo‘rin ekanini anglaydilar. Shularni nazarda tutgan holda «Sinfdan tashqari o‘qish», tarbiyaviy soat va to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish uchun ota-onalarini taklif qilgan holda noan’ananaviy darslar tashkil etilmoqda. Bunda dars yana ham qiziqarli bo‘lishi uchun vaqtidan unumli foydalanish maqsadida o‘quvchilarga topshiriqlar oldindan beriladi. Jumladan, «Kitob haqida qiziqarli ma’lumotlar», «Bolalar shoiri va yozuvchilaridan kimlarni bilasiz?», «O‘qigan kitobingiz haqida

ma'lumot bering. Uning muallifi va nomini bilasizmi?» kabi mavzular ilgari suriladi. O'quvchi rag'bat olish maqsadida biror bir kitob sotib olishga, kutubxonaga a'zo bo'lishga yoki aka-opalari o'qib bo'lib, unga tavsiya qilgan kitobni qo'lga olishga harakat qiladi[2].

O'qituvchi tomonidan berilgan bunday qiziqarli ma'lumotlarni Internet tarmog'i orqali, gazeta, jurnallardan, badiiy adabiyotlardan foydalangan holda yig'ib kelish o'quvchiga ham mas'uliyat, ham zavq bag'ishlaydi. Olib kelgan ma'lumotlar tinglanadi va xulosa qilinadi. Kitob mutolaa qilish haqidagi topshiriqlar bajarilib bo'lingach, kitob va planshet, ya'ni zamonaviy texnikada aks etgan ma'lumotlar taqqoslanadi. Bu o'quvchilar o'rtasida bahs-munozaraga sabab bo'ladi[3].

Ba'zi o'quvchilar kitob o'qish o'rniga planshetdan foydalansa ham bo'ladi, degan xulosaga keladi. Planshetdan foydalanish, uning qulayliklari: axborot-ma'lumotlarni yig'ish, o'yin o'ynay olishi, musiqa tinglashi haqida aytadi. Ba'zi noqulayliklari ham sanab o'tiladi. Masalan, uyda birdan chiroq bo'lmasa undan foydalana olmaslik, yoki undagi manbaning, ya'ni asarning biror-bir sabab bo'lib o'chib ketishi, dars jarayonida foydalanayotgan vaqtida qo'lidan tushib ketishi, unga suv to'kilib ketishi kabi kamchiliklari sanab o'tilsa, kitobga bo'lgan hurmat yana ham ortadi[4-9].

Bundan tashqari, mashg'ulotlar vaqtida kichik sahna ko'rinishlari, she'riyat daqiqalari uyuştirilib turiladi. Shu o'rinda «Eng yaxshi sxandon», «She'riyat malikasi», «Eng yaxshi rol ijrochisi», «Sahna malikasi»...kabi rag'batlar ham muhim o'rin tutadi. O'quv yili oxirida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun kutubxonalarga, kitob bayramlariga sayohatlar uyuştiriladi. Ta'til vaqtida o'quvchilarni band qilish maqsadida har xil tanlovlар o'tkaziladi. Xususan, boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ta'lim olishida qo'shimcha darsni o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir[10-11].

Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi: 1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. 2-bosqichda esa, shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Umumiyl o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish

malakalarini tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, "Tez aytish", "Topishmoqlar topish", "Ifodali o'qish", "Maqollar aytish musobaqasi", "Ertak to'qish", "Bilimdonlar anjumani" kabi ko'rlik-tanlovlardan tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyuştirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, "Kitob haftaligi" tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi[12-14].

Sinfdan tashqari o'qish sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyuştiriladi. Sinfda o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarining o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish - hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilarini uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan "Kitobim - oftobim" (1-3-sinflar uchun) nomli qo'llanmalar ham chop etilgan. Sinifdan tashqari o'qishni tashkil qilish o'qituvchining zimasidagi vazifa hisoblanadi. Bunda o'quvchi uni bosqichlarga ajratib tashkil qiladi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi[15].

O'qish darslariga qo'yilgan zamonaviy talablar o'qituvchidan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga jalb qilish, badiiy adabiyotni san'atning bir turi sifatida qarashga, asarlarning badiiy mazmunini, estetik ahamiyatini va obrazlar mazmunini tushunishiga e'tibor qaratish talab etiladi. Ta'limning an'anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o'qish darslarining uning har bir etapida o'quvchining faolligiga asoslangan mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda ta'lim jarayoniga to'liq jalb etish yotadi[16]. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Davlat ta'lim standarti bo'yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Shu boisdan ham boshlang'ich sinflar o'quv jarayonidagi bir xillikka barham berish dars jarayonini turli tumanligini, rang barangligini ta'minlash maqsadida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng joriy etishga mo'ljallangan o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va tatbiq qilish davr talabidir. Shu bilan birga dars jarayonida maxsus tayyorlagan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib o'quv jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarining amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va tez tushunib olishlariga

imkoniyat yaratadi. Shuningdek, dars davomida o‘quvchilar charchab qolmasligi va zerikmasliklari uchun musiqali dam olish daqiqalari ham tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Muammoning dolzarbliji, nazariy-pedagogik va amaliy holatidan kelib chiqib, biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini, “Sinfdan tashqari o‘qish samaradorligini oshirish usul va vositalari (boshlang‘ich sinf o‘qish darslari misolida)” deb nomladik[17-21].

Innovatsion pedagogika hozirgi davorda norasmiy fan sifatida ma’lum bo‘lgan biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e’tiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta’limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi olimlar shu boisdan ham mavjud an’anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakllanib rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti uning asosiy vazifasi hukumron bo‘lib turgan butun o‘quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o‘zlashtirishdir. Innovatsion pedagogika – hukumron nazariya nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikricha asosan adabiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo‘l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi pedagogika fanidagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim pedagogika – bilimlar tizimidir obyektivlik maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik bir-biriga zid bo‘lmaslik uning asosiy xarakteristikalaridir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga to‘garaklar, badiiy kechalar, olimpiadalar, ertaliklar, devoriy gazeta chiqarish va bir qancha turlari bor. Bu orqali o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi, jamoaviy muhit shakllanadi. Har bir o‘quvchi mustaqil fikr yuritishiga imkoniyat ortadi, muammoli vaziyatlarga tezroq yechim topishga tayyor bo‘lishadi, individual ishlashga ham vaqt yetarli bo‘ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib sinfdan tashqari ishlarni sifatli tashkil qilish orqali vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo‘sadigan yetuk insonlarni yetishtirib chiqarishda o‘z hissamizni qo‘sishimiz lozim. Buning uchun ko‘proq o‘qib o‘rganishimiz kerak va o‘rganganlarimizni amaliyatda joriy qilmog‘imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baxtiyorovich,T.H. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH KO‘NIMALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 153-159.
2. Tojiyev, H. (2023). FORMING THE ABILITY TO STRUCTURE INFORMATION TECHNOLOGY. *Conferencea*, 105-113.

3. Baxtiyorovich, T. H. (2021). Ways to Organize Extracurricular Activities in Mathematics and Teaching Methodology. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(10), 7-9.
4. Rahmat ogli, B. K. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 160-165.
5. Badalov, K. (2023). DEVELOPING THE CREATIVITY OF A PRIMARY CLASS TEACHER. Open Access Repository, 4(02), 141-148.
6. Kamoliddin, B. (2023, January). BOSHLANGICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI ORGANISH MANTIQIY KONIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In E Conference Zone (pp. 35-39).
7. BADALOV, K. (2022, April). TOOLS FOR HELPING TO DEVELOP THE LOGICAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE TEACHING OF GEOMETRIC MATERIALS. In E Conference Zone (pp. 214-217).
8. Тожиев, X. Б., & Бадалов, К. Р. (2023). ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ МЕТОДОВ, КОТОРЫЕ ПРИМЕНЯЕТ НАЧАЛЬНЫЙ КЛАСС В ИЗУЧЕНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(2), 3-9.
9. Baxtiyorovich, T. H., Javohir G'aybullo o'g, Z., & Rahmat o'g'li, B. K. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING INFORMATIKA DARSLARIDA AXBOROTNI TUZILMALASHTIRISH MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Journal of new century innovations*, 40(2), 66-70.
10. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). TALABALARMING RATSIONAL FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH YO 'LLARI. *Journal of new century innovations*, 40(2), 71-75.
11. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHISINING DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGI SHAKLLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 178-182.
12. Bobonazarovich, A. Z. (2021). THE ROLE AND INFLUENCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE DEVELOPMENT OF RESPECT FOR NATIONAL AND CULTURAL VALUES IN CHILDREN IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. *European science*, (4 (60)), 53-56.
13. Алмарданов, Ж. Б. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ХУРМАТ РУХИДА ТАРБИЯЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 479-481.

- 14.Алмарданов, Ж. Б. (2020). Механизмы воспитания уважения к национальным и культурным ценностям у детей в образовательной среде. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 92-94.
- 15.Алмарданов, Ж. Б. (2023). БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 287-289.
- 16.Алмарданов , Ж. Б. (2023). БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 287–289.
- 17.Bobonazarovich, A. J. R. (2023). Zamonaviy mактабгача ta'limda bolalarda milliy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 23-30.
- 18.Abduraimovna, D. S. (2023). TYPES OF REFLEXIVE LEARNING TECHNOLOGIES IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM. *Open Access Repository*, 4(03), 31-40.
- 19.Уралова, М. (2023). ВО ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF О ‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).
- 20.Уралова, М. (2023). ВО ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF О ‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).
- 21.Уралова Мухабата Санджаровна. (2023). Подготовка будущих учителей начальных классов к творчески-методической деятельности на основе интегративного подхода. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 390–393.